

O‘ZBEK RAQS SAN’ATINING RIVOJLANISH TARIXI VA HOZIRGI KUNDA TURGAN O‘RNI

*Termiz Davlat Universiteti. Xalq ijodiyoti; Folklor va etnografiya yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
Mardayeva Go‘zal Bozorovna.*

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek raqs san’atining shakllanishi, tarixiy rivojlanish bosqichlari hamda uning milliy madaniyatdagi o‘rni yoritiladi. O‘zbek raqsi qadimiy xalq an’analari, urf-odatlar va marosimlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, asrlar davomida xalqning estetik qarashlari va ma’naviy dunyosini aks ettirib kelgan. Maqolada raqs san’atining ilk ildizlari, xususan, ibtidoiy jamiyat davridan boshlab, o‘rta asrlar hamda zamonaviy davrgacha bo‘lgan rivojlanish jarayoni tahlil qilinadi. Shuningdek, Buxoro, Xorazm va Farg‘ona raqs maktablarining o‘ziga xos uslublari, ularning badiiy ifodasi va ijrochilik an’analari ilmiy jihatdan ko‘rib chiqiladi.

Maqolada o‘zbek raqs san’atining professional sahna san’ati sifatida shakllanishi, XX asrda uning rivojiga hissa qo‘shgan ijodkorlar faoliyati hamda bugungi kunda raqs san’atini saqlash va rivojlantirish yo‘nalishlari ham tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari o‘zbek raqs san’atining milliy madaniyatdagi o‘rni naqadar muhim ekanligini va uning xalq ma’naviyatini yuksaltirishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek raqsi, milliy madaniyat, raqs maktablari, Buxoro raqsi, Xorazm raqsi, Farg‘ona raqsi, sahna san’ati, an’analar.

Annotation

This article explores the formation, historical development, and cultural significance of Uzbek dance art. Uzbek dance is closely connected with ancient folk traditions, customs, and rituals, reflecting the aesthetic views and spiritual world of the people over centuries. The article analyzes the origins of dance art from the primitive society period to the Middle Ages and up to modern times.

In addition, the specific styles of the Bukhara, Khorezm, and Fergana dance schools, their artistic expressions, and performance traditions are scientifically examined. The study also highlights the development of Uzbek dance as a professional stage art, the contributions of prominent artists in the 20th century, and current directions for preserving and advancing this art form. The results of the research demonstrate the important role of Uzbek dance in national culture and its significance in enhancing the spiritual life of the people.

Keywords: Uzbek dance, national culture, dance schools, Bukhara dance, Khorezm dance, Fergana dance, stage art, traditions.

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы формирования узбекского танцевального искусства, этапы его исторического развития и место в национальной культуре. Узбекский танец тесно связан с древними народными традициями, обычаями и обрядами, на протяжении веков отражая эстетические взгляды и духовный мир народа. В статье анализируются истоки танцевального искусства начиная с первобытного общества и до современного периода развития. Особое внимание уделяется своеобразию Бухарской, Хорезмской и Ферганской танцевальных школ, их художественной выразительности и исполнительским традициям.

Также рассматривается процесс становления узбекского танца как профессионального сценического искусства в XX веке, деятельность деятелей искусства, внесших вклад в его развитие, а также современные направления сохранения и популяризации национального танцевального наследия. Результаты исследования показывают важное значение узбекского танцевального искусства в национальной культуре и его роль в духовном воспитании народа.

Ключевые слова: узбекский танец, национальная культура, танцевальные школы, бухарский танец, хорезмский танец, ферганский танец, сценическое искусство, традиции.

Kirish

O'zbek xalq raqs san'ati qadimdan tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Asrlar davomida shakllanib xalqning madaniy merosi sifatida alohida o'rin tutadi. Raqs san'ati insoniyat yaratgan davrlardayoq shakllanib, qadimdan,, Avesto" zardushtiylik ta'limotida keltirib o'tilgan. Masalan ibtidoiy davrda insonlar tomonidan tabiat hodisalarini (quyosh suv olov bilan bog'liq) turli afsonaviy ko'rinishlarda namoyon bo'lgan. Odamlar olovga sig'inib, olov atrofida aylanib raqs tushganlar. Shuningdek, Amir Temur davrida XIV-XV asrlarda Movarounnahr hududi madaniy markazga aylangan. Xalq sayllari va bayramlar uyushtirilgan, natijada ommaviy maydon raqslari paydo bo'lgan. Poytaxt hisoblangan Samarqandning ko'rkam bo'ylarida saroy qabullari, bayram sayllari o'tkazilib xalq raqslari hamda o'yinlari uyushtirilgan. Bundan kelib chiqib shuni ta'kidlash lozimki, raqs san'ati avloddan avlodga meros bo'lib kelayotganini ko'rishimiz mumkin. Raqs-o'zingni kuyga, ohanga baxshida etib, sehrlar dunyosiga sho'ng'ib ketmoq, ko'ngildagi bor yoni ko'zlargacha, harakatlarga joylab tomoshabinlarga hayrat ato etmoqdir. O'zbek xalq raqs san'atining buyuk daholari yaratilgan raqs asarlarida insonparvarlik, vafo, ona vatanga muhabbat, jasorat, fidokorlik go'zal xulq ruhida tarbiyalash kabi badiiy g'oyalar keltirilgan. Hozirgi kunda raqs san'atiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlatimiz

rahbarining,, Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar " to'g'risidagi qarori, 2027 yil 25 dekabr kuni Prezident Sh. M. Mirziyoev raisligida madaniyat va san'at sohasida dolzarb masalalar muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilishdagi murojaatnomasi raqs san'ati mutaxassislarining ham oldiga katta vazifalar yuklaydi. Ayniqsa, 2020 yil 4 fevraldagi,, Raqs san'ati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"PQ 4584-son qarori san'at sohasi rivojiga dasturilamal bo'lib xizmat qiladi. Bu esa raqs san'atining bugungi kunda jamiyatimiz hayotida milliy raqsning turli yo'nalishlari va mumtoz raqs maktablarini qayta tiklash va kelajak avlodlarga bezavol yetkazish kabi targ'ibot ishlarini kuchaytirishni taqozo etmoqda. O'zbek raqs san'atining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan O'zbekiston xalq artistlari, butun jahonga dong'i ketgan ustoz san'atkorlar, buyuk Baletmesterlar Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboeva, Izhor O'qilov, Roziya Karimova va shu kabi ko'plab san'at ustozlarini misol keltirishimiz mumkin bo'ladi. Ular yaratgan meros raqslarga „ Munojot " „ Tanovor", Pilla " „ Paxta" „ Katta o'yin" kabi ko'plab raqslarni sahnalashtirgan. Hozirgi kunga qadar U raqslarning biror joyini o'zgartirishga hech kimning haqqi yo'q ushbu raqslar buzulmasdan, ortiqcha elementlar qo'shmasdan butunligicha saqlanib qolingan. Bugungi kunda yurtimizda raqs maktablari shakllandi. Unda meros raqslar hamda baletmesterlar yangi raqslarni sahnalashtirib kelmoqda. Biz bilamizki, „ Bahor " „ Shodlik" „ Lazgi " kabi raqs ansambllari butun jahonni zabt etgan. 1990-yillarga kelib, „ Tanovor" „ Ofarin " „ Toshkent zebolari" „ Tumor " „ Parizoda" kabi xususiy raqs maktablari paydo bo'ldi. Ushbu yo'nalish bo'yicha oliy ta'lim tizimida fundamental bilimga ega mutaxassislar ishga qabul qilindi. Shartnomada keltirilgan talablarga ko'ra raqqos va raqqosalarning yoshi chegaralandi. 18-yoshdan ishga qabul qilinib, 36-yoshdan keyin nafaqaga chiqqan.

Asosiy qism.

Raqs ijrochiligi rivojlandi. Raqs san'ati 3-turga bo'lingan: „ Yevropa klassik balet san'ati ", xalq sahna (Professional) raqs san'ati, xalq ijodiyoti negizidagi Folklor va havaskorlik raqs ijrochiligi san'atlaridir.

Xalq raqslarni sahnalashtirgan. Raqsni inson yaratadi, uni yanada boyituvchi, rivojlantiruvchi san'at ustalari bo'lib ular -baletmesterlar deb ataladi. „ Baletmester" so'zi,, balet ustasi" degan ma'noni anglatadi. Baletmester baletda va raqsning boshqa har xil janrlarda ijod qiladi. Baletmesterlik faoliyati to'rta turga bo'linadi:

1. Baletmester -yaratuvchi.
2. Baletmester -sahnalashtiruvchi
3. Baletmester repetitor
4. Baletmester pedagog

Baletmester nafaqat raqsni sahnalashtiradi balki obriz orqali qo‘shiq yoki kuyning mazmunini harakatlar orqali ko‘rsatib beradi. O‘zbek raqs san‘atining Har xil uslublariga ega ekanligini, turli tuman janrlariga va ijro etish yo‘llariga ega bo‘lishi bilan o‘ziga harakterga ham egadir. Raqs o‘rganishda barcha to‘rtta maktabda ham dastlab holatlar, xarakatlar, aylanishlar, ehilishlar, kabi bilimlar o‘rgatiladi. Raqs bu san‘atdir. Unda ijod ruhiyati, his tuyg‘ulari, fikrini so‘z siz faqqat harakatlar va yuz ifodasi orqali ko‘rsatib beriladi. O‘zbek raqs san‘ati ashula va musiqa bilan chambarchas bog‘liqdir. Raqs keng ommalashgan nafis harakatlar va ma‘lum ritmik tuzilishlar bilan badiiy obraz yaratishga asoslangan san‘at turidir. Raqs musiqasi aniq o‘lchovga ega, raqsda jo‘r bo‘lish mo‘ljallangan, aniq ritmga harakterga munosib kuydir. Raqs musiqasida doira urma sozlar yoki qarsak chalib turub ham bajarilishi mumkin. Shunga ko‘ra raqs san‘ati ansambllar bilan boyitilgan. Raqs ansambllari Profisional va havaskorlik turlariga bo‘linadi. Profisional raqs ansambllari raqs ustalari bo‘lib ular raqs san‘ati bo‘yicha ma‘lumotga ega bo‘lgan raqqos va raqqosalardan iborat bo‘ladi. Havaskorlik raqs ansambllari esa o‘zining xuquqiy imtiyozlariga qarab hizmat qiladi. Havaskorlik raqs ansambllari qatoriga Farg‘onadagi Anor Surxondaryodagi Surxon gullari Zevari Quralay Namangandagi Namangan gullari Jizzaxda Gulira‘no Sirdaryodagi Sirdaryo navolari kabi ko‘plab raqs ansambllarini misol keltirishimiz mumkin. Hozirgi kunda bunday ansambllar ko‘plab faoliyat yuritib kelmoqda. Havaskorlik raqs ansambllari o‘z hududida shakllangan xalq raqslarini takomillashtirib boyitmoqda. Xalq og‘zaki ijodi milliy xalq qo‘shiqlari va milliy xalq kuylari uchun sahnalashtirgan asarlari bilan boyidi.

O‘zbek raqs san‘atining rivojlanishiga o‘z hissalarini qo‘shgan san‘at ustalaridan biri Usta Olim Komilov raqs va doirachilik san‘ati darg‘asi, mashhur doirachi, balkim birinchi o‘zbek baletmestri, mehnat qahramonlari, O‘zbekiston xalq artisti sanaladi. U 1875-yilda Marg‘ilonda tug‘ilgan. U 1936-1937 yillarda, „Farxod va shirin“, „Gulsara“ asarlariga raqslar sahnalashtirgan. Tamaraxonim bilan birga yigirmata usullaridan tashkil topgan qo‘l va oyoq harakatlarini yaratgan. Tamara Artyomova Petroskaya. 1906-yilda Farg‘ona shahrida dunyoga kelgan. O‘zbek diyorida tug‘ilgan arman qizi o‘zbek raqs san‘atiga katta hissa qo‘shgan. Yosh bo‘lishiga qaramay vokal raqs san‘ati ustozlaridan Muhiddinov Qoriyoqubov Usta Olim Komilov, Yusufjon qiziq Shakarjonov, To‘xtasin Jalolov, Jo‘raxon Sultonov kabi mohir san‘atkorlardan saboq olgan. Turli davlatlarga borib o‘zbek raqs san‘atini targ‘ib qilgan. Tamaraxonim ijodida 86 millatlarning qo‘shiq va raqslari bilan boyigan. Mukarrama Turg‘unboeva. Birinchi o‘zbek davlat musiqali teatr studiyasining aktrisasi o‘qituvchi bo‘lgan. Usta Olim Komilov va Tamaraxonim sahnalashtirgan, „Zang“ „Buxorocha. „Iroq ufori“ Eroncha Layli va majnun kabi ommaviy raqslarda, „Katta o‘yin“, „Sadr“, „Qaro navo“ „Ufori“ „Dilxiroj“ kunlariga yakkaxon raqslarni ijro etgan. 1933-1957 yillarda o‘zi ham, „Nog‘ora“, „Munojot“, „Tanovor“, „Abdurahmon-begi“

Andijon polkasi " „ G‘ayratli qiz" „, Sho‘x qiz " „, Paxta" „, Pilla" „, Rohat" „, Gulrux" „, Pomircha" „, Shodiyona " kabi raqslarni sahnalashtirgan. U 600-yaqin milliy va jahon raqslarni sahnalashtirgan. Shuningdek o‘zbek raqs san‘atini o‘zining qirq nafar raqqosa qizlar bilan dunyo kezgan. Roziya Zaripovna Karimova. U o‘zbek balet artisti baletmester va raqsshunos olim bo‘lgan. O‘zbek teatrlarida „, Ravshan va Zulhumor" „, Tohir va Zuhro " „, Oftobxon " „, Farhod va shirin " „, Gulsara" „, Ulug‘bek " kabi operalarga raqs sahnalashtirgan, hamda o‘zi yakka raqslarni ijro etgan. Mana shunday ko‘plab raqs san‘ati ustalari bizga meros qoldirgan xalq raqslari avloddan avlodga meros bo‘lib kelmoqda. Biz bunday ustoz san‘atkorlar ijodiga hurmat bilan ularning asarlarini o‘z xolicha keyingi avlodlar uchun ham o‘qib o‘rganish talab etiladi. Nemis musiqashunosi Zaks Kurt „, Raqs -barcha san‘atning onasidir" deb raqsga ta'rif beradi. Meksikalik yozuvchi Kyate Anxel de „, Muhabbat -bu raqs dunyodagi eng chiroyli, eng o‘ziga rom etuvchi taqdir" deb hisoblaydi. Raqs keng ommalashgan nafis harakatlar va ma‘lum bir ritmik tuzilishlar bilan badiiy obraz yaratishga asoslangan san‘at turidir. Bunda asosan yana ham raqsni boyitadigan jihatlardan biri raqs liboslari sanaladi. Raqs liboslari tanlashning asosiy shartlari uning maktabi va yo‘nalishi bo‘lsa yana bir jihati raqsni ijro etuvchi raqqosaning tashqi ko‘rinishini ham hisobga olishdir. O‘zbek milliy raqsimiz uch yo‘nalishdan tashqari mumtoz, lirik, folklor, zamonaviy janrlarga ega. Bu janrlarda raqs liboslari va taqinchoqlari ham bir biridan farq qiladi. Farg‘ona, Buxoro va Xorazm raqs uslublari bir biridan tubdan farq qiladi. Farg‘ona raqslarida go‘zal, dalil harakatlar bilan goh gavdaning bir oz oldinga etilishi, qo‘llarning tugallanmagan doiraviy hudi kashta tikayotgan kabi harakatlar bilan farqlanib turadi. Buxoro raqslarida esa yengil -yengil o‘tirib turishlari, gavdani tik tutib yurishlari bilan xarakterlanadi. Xorazm raqslari jo‘shqinlik aks etadi. Folklor etnografik ansambllari faoliyatiga nazar tashlaydigan bo‘lsak turli raqs maktablarida o‘zlarining milliy xalq ansambllari mavjud. Bu ansambllari „, Mustaqillik " „, Navro‘z" umumxalq bayrami, Sharq taronalari " „, Asrlar sadosi" „, Boysun bahori " „, Barhayot an‘analar" „, Yangi avlod " „, Kelajak ovozi" Yosh ijodkorlar " kabi ko‘plab festivallarda folklor ansambllari o‘z ijod namunalarini namoyish etib kelmoqda. Unda asrlar davomida shakllanib xalqning turmushi urf-odatlarini va an‘analarini o‘zida mujassam etgan xalq qo‘shiqlari va raqslari joy olgan. Masalan Surxon vohasining raqs maktablarida „, Chanqovuz " „, Qo‘shiq" „, Kadi" „, Urchiq" „, Kashta " „, So‘zona" „, Chiroq" kabi folklor raqslarini keltirishimiz mumkin bo‘ladi.

O‘zbek milliy raqs asosiy holatlari.

Farg‘ona raqs maktabi gavda holatlari, qo‘l va oyoq harakatlari, kompozitsion tuzilishi, liboslari bilan farq qiladi. Bosh holati oltita bo‘ladi. Bular birinchi holat bosh to‘g‘ri turadi. Ikkinchi holatda bosh biroz oldinga egilgan. Uchinchi holat bosh biroz orqaga tashlangan. To‘rtinchi holat bosh yonga qaralgan. Beshinchi holat bosh bir oz yonga qaratib, sal-pal tashlangan. Oltinchi holat bosh yelkaga etilgandek bo‘ladi.

Gavda holatida esa g'oz turmasligi shuningdek bo'shashmasligi ham lozim. Qo'l holatlari yettita bo'lib, ular rasmiy holatda boshlanadi. Shuningdek oyoqlar ham yettita holatda bo'ladi. Raqsda ko'plab harakatlar o'ziga hos nomlar bilan ataladi. Masalan: „Mayin sabo“ harakati, To'lqin“ harakati hamda „Uzum uzish“ harakatlari misol bo'ladi.

Xulosa.

Mamlakatimizda madaniy hayotning yuksalishi va raqs san'ati ta'limining rivojlanishi bolalar musiqa va san'at maktablarining oldiga yangi vazifalar qo'ymoqda. Mustaqillik sharofati bilan qardiyatlarimiz xususan milliy raqsimizga bo'lgan e'tibor ancha ortdi. O'zbek raqs san'atining ijrochilik san'atini rivojlantirish yangi pog'onaga ko'tarish yo'lida mehnat qilayotgan baletmestrlarning o'z mahoratlarini oshirishlari, o'z ishlariga ijodiy yondashuvlari samarali natijalar beruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Jamiyatimiz taraqqiyotining har bir bosqichida ilgari surilgan g'oyalar qisqa davrda xalqimizning ma'naviy boyliklari, baletmestrlarning raqslarida o'z ifodasini topdi. Turli ansambllar ijrosida televideniya, konsertlar orqali mehnatkash xalqning madaniyati va ma'naviyati yuksak, axloqiy barkamol, turmushi yaxshi ekan bunda raqs san'atining ham munosib hissasi bor. Respublika mehnatkashlari yuksak madaniyatga erishayotgani, madaniy kamoloti shahar, tuman, qishloqlardagi madaniyat uylari, san'at maktablari, o'quvchilar saroylari, korxonalar va tashkilotlar qoshida tashkil etilgan yuzlab badiiy havaskorlik jamoalarining faolyatlari ularning Respublika miqyosidagi chet elga qilgan ijodiy safarlarda o'z mahoratlarini namoyish etib kelmoqda. Mana shunday o'zbek xalq milliy kuy qo'shiqlari hamda xalq raqslari orqali ma'naviy tarbiyaning muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolatdir.

O'zbek xalq raqslari bugungi kunda ham o'z an'anasini, yo'lini, maktabini davom ettirib kelmoqda. Ustoz shogird an'alarini o'zida mujassam etgan xalq raqslari kelajak avlodlarga yuksak e'tirof kashf etadigan chin ma'noda oltin meros sifatida qadrlanib kelinishini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Zeroki, xalq raqslarida milliylik uyg'unlashgan. Yurtning madaniyati, ma'naviyati hamda san'ati dunyoga tanitadigan asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi. Poydevori mustahkam davlat esa yuksaklikka erishishidan dalolatdir. O'zbek xalq raqslari ham yurtning poydevori sifatida dunyolarga yuksaladi. Dunyoning barcha shaharlarida o'zbek milliy raqs guldastasini namoyon qilib kelayotganligi ko'rishimiz mumkin.

San'at bor insonlar qadri sarbaland. San'at bor vatanga oshdi, muhabbat. San'at bor dunyoga tanilar millat. San'at bor bayrog'im xilpirar abad.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. — Toshkent: O'zbekiston, 2008.
2. Qodirova M. O'zbek raqs san'ati. — Toshkent: Fan, 2015.
3. Ahmedov B. O'zbek madaniyati tarixi. — Toshkent: O'qituvchi, 2012.

4. Yusupova D. O‘zbekiston xalq raqslari. — Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 2010.
5. Rahimov T. O‘zbek raqsida an’ana va zamonaviylik. — Toshkent, 2018.
6. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. — Toshkent, 2000–2005.
7. Komiljon Qodirov. „ O‘zbek raqs san’ati tarixi’ -Toshkent ; O‘qituvchi 2010.
8. O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi. San’atshunoslik masalalari . Ilmiy maqolalar to‘plami.-Toshkent, 2021.

